


IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 791,5 mln. AQSH dollari tashkil etgan, jumladan 356,0 mln. AQSH dollarini-eksport, 435,5 mln. AQSH dollarini - import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosı -68,5 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi
(mln. AQSH dollari)




So'ngi yillarda xukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.


**2021- yil yanvar-sentabr oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**
(mln. AQSH dollar va foizda)



2020- yil yanvar-sentabr



2021- yil yanvar-sentabr



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,9 % ga, MDH davlatlari 111,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 130,1 % ga ko'paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 117,9 % ni va shundan MDH davlatlari 102,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlarga 182,7 % ni tashkil etdi.

Jami import aylanmasi 121,5 % ga ko'paygan bo'lib, undan MDH davlatlari 130,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 117,1 % ga ko'paygan.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, (2020- yilning tegishli davriga nisbatan), mashina va asbob-uskunalar 120,7 % ga, ko'rsatilgan xizmatlar 241,6 % ga ko'paygani kuzatildi.

MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)

	yanvar-sentabr		O'sish sur'ati, % da
	2020- yil	2021- yil	

Tashqi savdo aylanmasi	606,4	791,5	119,9
-------------------------------	--------------	--------------	--------------

shu jumladan:

MDH davlatlari	360,1	400,9	111,3
----------------	-------	-------	-------

Boshqa davlatlar	300,3	390,6	130,1
------------------	-------	-------	-------

Eksport	301,9	356,0	117,9
----------------	--------------	--------------	--------------

shu jumladan:

MDH davlatlari	242,8	247,9	102,1
----------------	-------	-------	-------

Boshqa davlatlar	59,1	108,1	182,9
------------------	------	-------	-------

Import	358,4	435,5	121,5
---------------	--------------	--------------	--------------

shu jumladan:


MDH davlatlari	117,2	152,9	130,4
----------------	-------	-------	-------

Boshqa davlatlar	241,2	282,6	117,1
------------------	-------	-------	-------

Viloyatdagi eksport-import tarkibi

	Umumiy hajmdagi ulushi, % da		2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan % da
	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	
Eksport tarkibi	100,0	100,0	117,9
paxta tolasi	0,1	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	29,1	18,0	61,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	1,5	1,3	86,6
energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	0,1	-
qora va rangli metallar	4,3	0,8	18,6
mashina va uskunalar	2,0	2,1	105,0
engil sanoat	58,1	72,4	124,6
xizmatlar	1,4	2,9	2,1 m.
boshqalar	3,5	2,4	68,6
Import tarkibi	100,0	100,0	121,5
oziq-ovqat mahsulotlari	14,3	16,5	115,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	20,6	17,5	84,9
energiya manbalari va neft mahsulotlari	2,1	2,4	114,3
qora va rangli metallar	8,2	10,0	121,9
mashina va uskunalar	32,5	36,1	111,1
xizmatlar	0,2	0,2	100,0
boshqalar	22,1	17,3	78,3

Viloyat tovar aylanmasida katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi
(2021- yil yanvar-sentabr, % da)



**2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi
yuqori ulushga ega davlatlar**


(ming AQSH dollari)

Davlatlar nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
Rossiya	223 461,9	148 783,1	74 678,8
Xitoy	197 987,1	53 777,7	144 209,4
Qozog'iston	84 900,7	35 441,1	49 459,6
Turkiya	76 101,7	24 777,7	51 324,0
Qirg'iziston	51 948,1	46 402,7	5 545,4
Xindiston	14 221,2	656,1	13 565,1
Ukraina	12 900,3	1 760,7	11 139,5
Polsha	12 284,5	7 197,1	5 087,4
Germaniya	11 638,9	5 994,3	5 644,6
Belarus	11 318,3	2 181,5	9 136,9
Turkmaniston	8 446,5	299,0	8 147,5
Tayvan	8 355,1	2 527,2	5 828,0
Koreya Respublikasi	6 174,2	42,7	6 131,5
Italiya	6 111,9	867,0	5 244,9
Malayziya	5 914,2	1 413,8	4 500,4
Fransiya	5 630,0	-	5 630,0
Tojikiston	4 962,1	3 774,6	1 187,5
Eron	4 767,9	-	4 767,9
Argentina	3 581,5	3 581,5	-
Portugaliya	3 457,8	3 266,8	191,0
Afg'oniston	3 418,7	524,1	2 894,6
Avstriya	2 996,8	-	2 996,8
Shvedsariya	2 578,8	92,0	2 486,8
Latviya	2 254,4	0,4	2 254,0
Misr	2 144,2	2 098,5	45,7

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat tashqi savdo
aylanmasida katta ulushga ega bo'lgan davlatlar**

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan % da
Rossiya	28,2	137,4
Xitoy	25,0	131,4
Qozog'iston	10,7	104,7
Turkiya	9,6	192,7
Qirg'iziston	6,6	54,8
Xindiston	1,8	162,4
Ukraina	1,6	5,9 m.
Polsha	1,6	141,8
Germaniya	1,5	170,1
Belarus	1,4	78,1
Turkmaniston	1,1	64,0
Tayvan	1,1	192,9
Koreya Respublikasi	0,8	6,4 m.
Italiya	0,8	155,7
Malayziya	0,7	2,5 m.
Fransiya	0,7	158,1
Tojikiston	0,6	103,0
Eron	0,6	65,4

2021- yil yanvar-sentabr oylarida jami eksport tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)




Joriy davrda eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmiga nisbatan yengil sanoat ulushi 72,4 %, oziq-ovqat mahsulotlari eksportining ulushi 18,0 % ni hamda boshqa turdagi mahsulotlar eksportining ulushi esa 9,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 10 425,4 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,9 % ni tashkil etib, o'tgan- yilning mos davriga nisbatan 207,1 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida jami eksport tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)**

	yanvar-sentabr		O'sish sur'ati, % da
	2020- yil	2021- yil	
Viloyat jami	301 926,8	356 007,5	117,9
Namangan sh.	71 832,2	110 681,3	154,1
Mingbuloq	13 443,8	16 220,7	120,7
Kosonsoy	21 170,1	24 470,9	115,6
Namangan t.	17 477,1	14 816,5	84,8
Norin	16 872,8	17 226,5	102,1
Pop	9 313,3	11 310,9	121,4
To'raqo'rg'on	48 587,4	60 638,5	124,8
Uychi	17 182,7	32 274,9	187,8
Uchqo'rg'on	14 307,1	22 618,8	158,1
Chortoq	15 093,0	6 262,8	41,5
Chust	13 879,2	15 624,7	112,6
Yangiqo'rg'on	40 100,4	19 522,8	48,7


**2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat eksportida
asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da)**



Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Ukraina va Polsha davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport xajmining 90,6 % tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Ukraina va Polsha davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)




Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan mashina va uskunalar importining ulushi 36,1 % ni, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlari importining ulushi 17,5 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 16,5 % ni hamda boshqa turdagi mahsulotlar importining ulushi esa 29,9 % ni tashkil etdi.

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida jami import tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida**

(ming AQSH dollari)

	yanvar–sentabr		O‘shish sur‘ati, %da
	2020- yil	2021- yil	
Viloyat jami	358 441,9	435 484,4	121,5
Namangan sh.	168 614,9	187 979,1	111,5
Mingbuloq	10 837,8	20 367,4	187,9
Kosonsoy	21 418,6	32 650,7	152,4
Namangan t.	33 722,5	24 009,2	71,2
Norin	23 402,2	26 970,3	115,2
Pop	15 696,0	14 475,6	92,2
To‘raqo‘rg‘on	17 369,8	16 893,5	97,3
Uychi	14 077,7	29 024,0	206,2
Uchqo‘rg‘on	3 020,7	5 341,5	176,8
Chortoq	5 502,2	18 403,4	334,5
Chust	21 687,7	29 026,7	133,8
Yangiqo‘rg‘on	13 196,0	27 750,1	210,3

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat importida
asosiy hamkor davlatlar ulishi, (% da)**



2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatga 63 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 9 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Belarusiya, Xindiston, va Tayvan kabi xamkor davlatlarning jami import hajmi 367 792,3, ming AQSH dollarga teng. Bu esa umumiy import hajmining 84,5 % ni tashkil qiladi.